



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI Demografik holat

2021- yil yanvar-dekabr

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 1 033,9 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 20,2 ming kishiga yoki 2,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 505,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 528,4 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **20 238 kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **26 578 nafarni** tashkil etdi.
- **4 848 nafar** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **9 229 nafar nikoh** va **1 229 nafar ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2022- yil 1- yanvar** holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 205,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 156,5 ming kishini yoki (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni G'ozg'on shahrida 8,9 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (0,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati **2020- yilning yanvar-dekabr**ga nisbatan Karmana tumanida 103,1 % ni, Navoiy shahrida 102,7 % ni, Tomdi tumanida 102,6 % ni, Uchquduq tumanida 102,1 % ni, Xatirchi tumanida 101,9 % ni va Navbahor tumanida 101,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2022- yil 1- yanvar holatiga)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Erkaklar</i>	<i>Ayollar</i>	<i>Shahar aholisi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
Viloyat bo'yicha:	1 033 869	524 062	509 807	505 466	528 403	9,3
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	150 755	75 694	75 061	150 755	-	2 513,3
Zarafshon	85 612	44 818	40 794	85 612	-	4 280,0
G'ozg'on	8 938	4 792	4 146	8 938	-	15,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	132 220	65 493	66 727	43 189	19 972	140,6
Konimex	36 759	19 386	17 373	16 787	19 879	4,0
Qiziltepa	156 537	79 127	77 410	49 182	107 355	71,5
Navbahor	116 796	59 222	57 574	16 622	100 174	74,4
Nurota	86 643	44 510	42 133	49 153	37 490	14,6
Tomdi	15 444	7 864	7 580	4 966	10 478	0,4
Uchquduq	38 356	18 956	19 400	33 661	4 695	0,8
Xatirchi	205 809	104 200	101 609	46 601	159 208	144,9

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- yanvar holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Qiziltepa va Nurota tumanlarida 9,7 % ni, Xatirchi tumanida 9,2 % ni, Karmana tumanida 8,5 % ni va Uchquduq tumanida 6,7 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex va Navbahor tumanlarida 3,3 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.


Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi (2022- yil 1- yanvar holatiga, foizda)



Aholining tabiiy harakati yanvar-dekabr holatiga


	2020- yil kishida	2021- yil kishida	o'sish, kamayish	2020- yil har ming kishiga	2021- yil har ming kishiga
<i>Tug'ilganlar</i>	23 888	26 578	2 690	23,8	26,0
<i>O'lganlar</i>	5 038	4 848	-190	5,0	4,7
<i>Tabiiy o'sish</i>	18 850	21 730	2 880	18,8	21,3
<i>Nikohlar</i>	9 080	9 229	149	9,0	9,0
<i>Ajralishlar</i>	931	1 229	298	0,9	1,2

yanvar–dekabr holatiga aholining tabiiy harakati, birlikda



Navoiy viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-dekabr) yillar, ming kishi

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 26 578 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,0 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,2 promillega oshgan (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 23,8 promille bo'lgan).



Tug'ilganlar yanvar-dekabr holatiga, (kishida)


	2020- yil	2020- yil promilleda	2021- yil	2021- yil promilleda
Navoiy viloyati	23 888	23,8	26 578	26,0
Navoiy sh.	3 260	22,4	3 919	26,3
Zarafshon sh.	1 965	23,3	2 093	24,5
G'ozg'on sh.	143	16,4	205	23,1
Karmana t.	3 201	25,2	3 621	27,8
Konimex t.	809	22,5	821	22,5
Qiziltepa t.	3 308	21,6	3 644	23,5
Navbahor t.	2 528	22,2	2 834	24,5
Nurota t.	2 219	26,2	2 416	28,1
Tomdi t.	241	16,2	245	16,0
Uchquduq t.	966	25,8	979	25,8
Xatirchi t.	5 248	26,2	5 801	28,5

Vafot etganlar

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 4 848 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar–dekabr



2021- yilning yanvar–dekabr oylarida 186 ta 1 yoshgacha go'daklar o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 tirik tug'ilganga go'daklar o'lim koeffitsiyenti 7,7 promilleni tashkil etdi.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar




Nikoh. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 9 229 nafar nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,0 promilleni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarishsiz (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 9,0 promille bo'lgan).



Tuzilgan nikohlar yanvar-dekabr holatiga, (kishida)



2020- yil




2021- yil

Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1 229 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 0,9 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralganlar yanvar-dekabr holatiga, (kishida)



MIGRATSIYA

2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9 524 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan minus 1,1 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,2 promille bo'lgan).


2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 11 016 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 10,8 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 10,5 promille bo'lgan).

Migratsiya saldosini minus 1 492 kishi bo'lib, 2020- yilning o'tgan shu davrida minus 2 319 kishi bo'lgan.




	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
<i>Ko'chib kelganlar</i>	8 250	9 524
<i>Ko'chib ketganlar</i>	10 569	11 016
<i>Migratsiya saldosini</i>	-2 319	-1 492

Ko'chib kelganlar yanvar-dekabr holatiga, (kishida)



Ko'chib ketganlar yanvar-dekabr holatiga, (kishida)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel.:(79) 223-07-41